O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA HISOBI, MOLIYAVIY BARQARORLIK VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

2-QISM



25 - aprel 2026-yil

Termiz shahri

“Milliy iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi, moliyaviy barqarorlik va turizmni rivojlantirish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari // Termiz: Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, “Termiz publishing center” 2026. - 371 bet.

TAHRIRIYAT HAY’ATI

- **A.E Absamatov** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (hay’ati raisi);
- **S.Ch. Eshqorayev** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, k.f.f.d., dotsent (raisi o‘rinbosari);
- **Sh.N Otamurodov** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.d. (DSc), dotsent (a’zo);
- **T.A. Mamadjanova** – Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent (a’zo);
- **X.A. Jurayev** – Moliya va turizm kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent (a’zo);
- **Sh.S. Muzrapova** - Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD) (a’zo);
- **B.E. Turayev** - Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD) (a’zo);

MAS’ULLAR:

- **A.A. Shodiyev** –Buxgalteriya hisobi va statistika kafedra mudiri, i.f.d. (DSc), dotsent;
- **Z.I. Xakimov** – Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD);
- **N.X. Dosmuxamedova** - Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi katta o‘qutuvchisi;

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2026-yil 25- aprel kuni ilmiy- amaliy konferensiya o’tkazildi. Ushbu konferensiyada 4 ta sho’ba faoliyat olib bordi. Har bir aho’ba tarkibidan munosib deb topilgan maqola va tezislar saralab olindi hamda mazkur to’plamga kiritildi. Ushbu to’plam materiallaridan o’qituvchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar va ilmiy izlanuvchilar foydalanishlari mumkin

Mazkur to’plamdagi maqola va tezislarda keltirilgan ma’lumot va faktlarning to’g’riligi, aniqligi, imlosi, uslubi hamda ilmiy saviyasiga mualliflar mas’ul.

ISBN:

©Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

©“Termiz publishing center” 2026.

bo‘yicha esa alpha juda katta (≈ 573), bu esa modelda o‘lchov birliklari farqi tufayli keskin sezgirlik mavjudligini anglatadi. Uzoq muddatli matritsa (alpha·beta') natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, tizimda o‘zaro ta’sir mavjud: investitsiyalar ifloslanishga sezilarli ta’sir qiladi (765.04), aksincha ta’sir esa nisbatan kichikroq. Umuman olganda, natijalar Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish va ekologik holat o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat mavjudligini va investitsiyalar ekologik jarayonlarda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida investitsiyalar va ekologik ifloslanish o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Dinamik va statistik tahlillar investitsiyalar hajmi ortishi bilan atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdori ham ayrim davrlarda oshib borishini tasdiqladi. Biroq, Johansen kointegratsiya testi natijalari uzoq muddatda investitsiyalar ekologik ifloslanishni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu esa investitsiyalarning texnologik yangilanish va ekologik samaradorlikni oshirish orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Shu bois, kelgusida hududlarda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bilan birga ekologik xavfsizlikni kuchaytirish, xususan “yashil investitsiyalar”ni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Huseynova S. Cointegration analysis of economic growth parameters between russia and azerbaijan // Sciences of Europe. 2023. №110.
2. Yuniszada R. The Cointegration analysis of per capita trade turnover between the Republic of Azerbaijan and Turkey and the GDPs of these countries // Проблемы экономики. 2024. №4 (61).
3. Ганиева З.С., Утемуратова З.М. Роль описательной статистики в экономике // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2026. №14.I.
4. Гржибовский А.М. Типы данных, проверка распределения и описательная статистика // Экология человека. 2008. №1.

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li
SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi,
E-mail: firdavs26031995@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonining mohiyati, uning tibbiy xizmatlar sifatiga, boshqaruv samaradorligiga va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, elektron

tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish va aholi sog‘ligini himoya qilishda innovatsion yondashuvlar muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, telemeditsina, elektron tibbiyot, sun’iy intellekt, boshqaruv samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi sog‘liqni saqlash sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Endilikda nafaqat texnik imkoniyatlar, balki boshqaruv, yuridik tartibga solish va fuqarolarning raqamli savodxonligi ham ushbu sohaning muhim qismlariga aylanmoqda. Jumladan, yurtimizda ham bu borada qator tashabbuslar ilgari surilmoqda[1].

Hozirgi kunda iqtisodiy faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal sur’atlar bilan kechmoqda. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida sog‘liqni saqlash tizimlarini raqamli transformatsiya qilish orqali tibbiy xizmatlarni yanada sifatli, tezkor va shaffof ko‘rsatish imkoniyati yaratilmoqda. Raqamli tibbiyot – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish, boshqaruvni takomillashtirish va aholining sog‘ligini saqlashga qaratilgan kompleks tizimdir.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Elektron sog‘liqni saqlash” milliy platformasini joriy etish tashabbuslari bu boradagi muhim qadamlardir. Ushbu islohotlar natijasida tibbiyot muassasalari o‘rtasida elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilmoqda, bemorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar elektron bazalarda saqlanmoqda, telemeditsina tizimi kengaymoqda va dori vositalari aylanmasi ustidan raqamli nazorat kuchaytirilmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning asosiy maqsadi – tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, inson omilini kamaytirish, tibbiy qarorlar qabul qilishda aniq statistik ma’lumotlarga asoslanish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashdir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar tibbiy xizmatlarning shaffofligini ta’minlab, aholiga qulay va teng imkoniyatli tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zamin yaratadi. Shunday qilib, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish – zamonaviy tibbiyot rivojining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilishi natijasida grafik tahlil, statistik va tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt va mantiqiy, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi. Xizmat koʻrsatish korxonalari, xususan, tibbiy xizmat koʻrsatuvchi korxonalar va ularni raqamlashtirish, shuningdek, raqamlashtirishni xizmat koʻrsatish korxonalari samaradorligini oshirishdagi oʻrni xorijlik iqtisodchi olimlardan F.Kotler[2], K.Peter[3] va boshqalar, mahalliy iqtisodchi olimlardan esa O.M.Qurolov[4], Sh.J.Abdumalikov[5], V.B.Usmanova[6], Gʻ.M.Porsaev[7] va boshqa koʻplab olimlar oʻz tadqiqotlarini olib borishgan.

Tahlil va natijalar. Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash tizimini raqamlashtirish loyihasi *"Uzinfocom"* kompaniyasiga topshirilgach, dastlab mamlakatdagi barcha poliklinikalar boʻyicha inventarizatsiya ishlari amalga oshirildi. Bu jarayon davomida har bir muassasada mavjud komputerlar soni, texnik jihozlanish darajasi hamda raqamli axborot tizimini joriy etish uchun zarur infratuzilma imkoniyatlari oʻrganildi. 2024-yil iyun oyiga kelib, inventarizatsiya yakunida aniqlanishicha, respublika boʻylab 75 mingdan ortiq komputer yetishmaydi. Shuningdek, ayrim tibbiyot muassasalarida ichki lokal tarmoq yoki internet aloqasi mavjud emasligi, roʻyxatga olish boʻlimlarida esa bir necha xodimlar tomonidan foydalaniladigan atigi bitta-ikkita komputer borligi ma'lum boʻldi[8].

Infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, *"Uzinfocom"* mutaxassislari bemorlarning elektron tibbiy kartasini yuritish imkonini beruvchi *"DMED" yagona tibbiy axborot tizimi*ni ishlab chiqib, uni bosqichma-bosqich joriy etishni boshladi. Bugungi kunda ushbu tizim orqali *Toshkent shahridagi 150 dan ortiq poliklinika* faoliyat yuritmoqda. Tizimda bemorlarni aniqlash *Face ID* texnologiyasi va *JSHSHIR* orqali amalga oshiriladi, bu esa ma'lumotlarning avtomatik tarzda yagona bazadan olinishi imkonini beradi.

Bemorlar shifokor qabuliga *toʻrtta usulda* yozilishi mumkin: infokiosklar orqali, "*DMED" mobil ilovasi (iOS/Android)* yordamida, "*my.gov.uz"* portali orqali yoki bevosita roʻyxatdan oʻtish boʻlimida. Ilova orqali foydalanuvchilar qabul sanasini tanlash, tahlil natijalarini elektron hujjat shaklida koʻrish, shifokor tomonidan yozilgan retsept va tibbiy ma'lumotlarga ega boʻlish imkoniyatiga ega boʻladilar. Shuningdek, bemorlar shifokor qabulidan soʻng oʻz fikr va mulohazalarini bildirishlari, mutaxassislar reytingi va sharhlari bilan tanishishlari mumkin, bu esa xizmat sifatini oshirish va bemor uchun eng maqbul shifokorni tanlash imkonini yaratadi. Umuman olganda sogʻliqni saqlash sohasida "DMED" tizimini joriy etishdan oldingi shu bugungi kunga qadar holat va joriy etilgandan soʻng bir qancha afzalliklari quyidagi rasmda aks etgan (1-rasm):



1-rasm. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdan oldingi va keyingi holatining natijalari [9]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlariga asosan, “DMED” tizimi tibbiyotni raqamlashtirish jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki u sog‘liqni saqlash tizimida axborot oqimini markazlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Birinchidan, ushbu tizim bemorning to‘liq elektron tibbiy kartasini yaratish imkonini beradi. Bu orqali bemorning barcha tashxislari, tahlil natijalari, davolanish tarixi va dori buyruqlari yagona ma’lumotlar bazasida saqlanadi va shifokorlar o‘rtasida tezkor almashiladi. Natijada takroriy tekshiruvlar soni kamayadi hamda davolash jarayonida inson omili bilan bog‘liq xatoliklar deyarli yo‘qoladi. Ikkinchidan, “DMED” tizimi bemorlarga onlayn tarzda navbatga yozilish, shifokorga qabulga ro‘yxatdan o‘tish va natijalarni masofadan ko‘rish imkonini beradi. Bu qulaylik poliklinikalardagi navbatlarni kamaytiradi va xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtiradi. Uchinchi afzallik – elektron retseptlar tizimidir. Shifokor tomonidan yozilgan dori buyruqlari elektron shaklda dorixonalar bilan bog‘lanadi, bu esa dori berishda xatoliklarni kamaytiradi va qog‘oz hujjat aylanishini yo‘qotadi. To‘rtinchidan, tizim sog‘liqni saqlashni boshqarish va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Yig‘ilgan ma’lumotlar epidemiologik kuzatuv, kasalliklar tarqalishini aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Beshinchidan, “DMED” tizimi sog‘liqni saqlash tizimidagi shifokorlar faoliyatini, xizmatlar sifatini va bemorlarga ko‘rsatilayotgan yordamni nazorat qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, tizim ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi, chunki barcha ma’lumotlar maxsus himoyalangan serverlarda saqlanadi. Umuman olganda, “DMED” platformasi tibbiyot sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish, sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish va fuqarolarga qulaylik yaratish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Demak, DMED – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan yagona tibbiyot tizimi. U bemorlar va tibbiyot xodimlari uchun tibbiy xizmat sifatini optimallashtirish va yaxshilash uchun keng qamrovli yechim taklif etadi[10].

Avvalgi tizimda moliyalashtirish mexanizmi poliklinikaga biriktirilgan bemorlar soniga asoslangan bo‘lib, ularning barchasiga tibbiy xizmat ko‘rsatilgan yoki yo‘qligidan qat’i nazar, muassasaga belgilangan miqdorda mablag‘ ajratilardi. Natijada, tibbiyot muassasalarining faoliyati samaradorligi yetarlicha hisobga olinmasdi. Yangi tizimda esa moliyalashtirish tamoyili *davolangan holat uchun to‘lov* prinsipiga asoslangan. Bunda bemor qabulga kelgan, tekshiruvdan o‘tgan va davolanish kursini yakunlagan taqdirda, bu holat tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatida ro‘yxatga olinadi va davlat tomonidan haq to‘lanadi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

raqamli tizimlar tibbiyotda hujjatlashtirish va ma’lumot almashinuvini tezlashtiradi, natijada, sog‘liqni saqlash tizimi korxonalari samaradorligi oshadi;

elektron tibbiy kartalar orqali inson omilidan keladigan xatolar kamayadi;

raqamli baza tahlil va prognoz qilish imkonini berib, ularni qayta tahlil yoki tizimli tahlil qilish osonlashadi;

mobil ilovalar va onlayn monitoring orqali bemorlar sog‘lig‘i kuzatib borilishi natijasida bemorlarga qilingan muolajalar samaradorligi oshib, ularning sog‘ayish ehtimolligi ortadi;

raqamli texnologiyalar shifokorlar ishini yengillashtirib, xizmat ko‘rsatish sifati darajasini oshiradi, natijada shifokorlar tomonidan bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati yanada yaxshilanadi va boshqa bir qator afzalliklarni sanashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isroilova.X. . (2025). Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari haqida. Ilm Nuri, (15(50). Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/127879.

2. P.Kotler and others. Marketing for Health Care Organizations 1st Edition, December 1, 1986, 576 pages.

3. C.Peter. Management of Healthcare Organizations: An Introduction, Third Edition, Softbound, 500pp, 2019.

4. O.M.Qurolov. Raqamli marketing texnologiyalari asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish (Sog'liqni saqlash tizimi misolida), iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2025.

5. Sh.J.Abdumalikov. Tibbiy xizmatlar bozorini raqamli marketing strategiyasi asosida rivojlantirish mexanizmlari,), iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Nukus-2025.

6. V.B.Usmanova. Xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Nukus-2025.

7. G‘.M.Porsaev va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.

8. https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/15/digitalization-of-healthcare/.

9. “DMED” tizimini O‘zbekiston Respublikasida joriy qilish va o‘rgatishga bag‘ishlangan rasmiy Telegram-kanal, https://t.me/umis_dmed.

10. https://uzinfocom.uz/uz/projects/dmed-uz-latin-18.

TIBBIY XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI ANIQLASH YO‘LLARI

O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li
SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi,
E-mail: firdavs26031995@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining umumiy samaradorligini baholash mezonlari va ularni aniqlash usullari yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar hajmi, foydalilik darajasi, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samarasi va bemorlar qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida sog‘liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, ko‘rsatkichlar tizimi, mehnat unumdorligi, rentabellik, iqtisodiy tahlil, sog‘liqni saqlash sohasi, ijtimoiy samaradorlik.

Kirish. So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimida samaradorlikni oshirish masalasi jahon va O‘zbekiston amaliyotida eng dolzarb mavzulardan biri sifatida ajralib turadi. Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar – kasalxonalar, poliklinikalar, tibbiyot markazlari va maxsus klinikalar – nafaqat aholining sog‘lig‘ini saqlash va yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi, balki iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va sog‘liqni saqlash tizimining samarali ishlashini ta’minlashda ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tibbiy muassasalar faoliyatini tizimli va ilmiy asosda baholash zarurati tobora oshmoqda.

MUNDARIJA

Jabborov Sohib Yodgar o'g'li	Masofaviy bank xizmatlari: jahon tajribasi va o'zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari	3
Xakimov Zafar Ibragimovich Nuriddinova Kamola	Tijorat banklarining aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni va iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati	8
Absamatov Asqar Ergashovich	O'zbekistonda islomiy sug'urta (takoful) tizimini shakllantirish muammolari va imkoniyatlari	10
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	Mamlakatga investitsiyalarni keng jalb qilishdagi asosiy muammo va to'siqlar: xorij tajribalari asosida tahlil	15
Xolmatova Asila Menglimurod qizi To'rayeva Sabrina G'anisher qizi	Masofaviy bank xizmatlari amaliyotiga ta'sir etayotgan omillarning ta'sir darajasi	21
Melikov Otabek Maxmadaminovich	Innovatsion moliyaviy texnologiyalarning bank sektorini raqamlashtirishdagi roli	25
Kurbosheva Mohira Xafizovna	Tijorat banklarining kreditlash siyosatini ishlab chiqish tamoyillari	31
Xakimova Nasiba Abduraimovna	Fermer xo'jaliklarida sug'orish texnologiyalarini subsidiyalash amaliyoti	34
Norboboyeva Marjona Dilshod qizi	O'zbekiston respublikasining bank tizimini raqamlashtirish masalalari	39
Boliyeva Baxora Farxodovna	O'zbekistonda bank-moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash investitsion faollikni oshirish asosi sifatida	42
To'raqulov Asliddin Shavkat o'g'li	Hozirgi zamon monetar siyosatining dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari	47
Xakimov Zafar Ibragimovich	Agrar sohada moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi muassalar faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari	49
Akmal Ahtamovich Nizamov	Sun'iy intellekt yordamida logistik xizmatlarni optimallashtirish masalalari	53
Turdialiyev Faxritdin Djurayevich	Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ulardan foydalanish omillari	57
Xakimov Zafar Ibragimovich G'ayriddinov Ulug'bek	Tijorat banklarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	62
Xo'jamov Shaxboz Do'smuxamedova N.X	Bank xizmatlari tizimida innovasion yondashuvlar va ularning raqobatbardoshlikka ta'siri	67
Xolmatova Asila Menglimurod qizi	O'zbekiston tijorat banklarining masofaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish	75
Axmedov Mansur Allamuratovich	Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati	79
Baxriyev Doston Sa'dullo o'g'li	Kichik korxonalarda soliqlar hisobini o'ziga xos jixatlari	85
Jovliev Nuriddin Mengniyorovich Yusupov Gulboy Amirovich	Xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	89
Tilakzoda Shohsanam	Soliq qarzini undirish mexanizmini takomillashtirish	92

Yusupov Gulboy Amirovich	yo‘llari	
Normuratov Odil Saparovich	Soliq tushumlarining davlat budjetida tutgan o‘rni	96
Ғайрат Маткаримович Жуманиёзов	Микромолиялаш хизматларининг генезиси ва Айрим хорижий мамлакатлар тажрибаси	99
Salamov Ulug‘bek Abdraimovich	Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobini takomillashtirish	104
Muzrapova Shahnoza Saydullayevna Rahmonova Sevinch Shuhratovna	Kichik biznes subyektlariga berilayotgan kreditlarning samaradorligi	108
Toshmurodov Abdurasul	Soliq tushumlarining davlat budjetida tutgan o‘rni	113
Ilxom Choriyevich Yarmatov A.A.Shodiyev	Jahon olimlarining davlat moliyaviy nazorati va ichki auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlari	116
Ilxom Yarmatov A.A.Shodiyev	Davlat moliyaviy nazorat tizimi va uning asosiy vazifalari	118
Sarvarbek Can’atbekovich Can’atbekov	Tez ovqatlanish korxonalarining yevropacha osiyocha modellarining o‘ziga xos taqqoslama tahlili	122
S.S.San’atbekov	Tez ovqatlanish xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari	125
Sh.I. Sotimov	Hududlarda kambag‘allik va mehnatga layoqatli aholining tabaqalashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik	130
Q. F. Akbar o‘g‘li	Tibbiyot sohasida stomatologiya xizmatlarini rivojlanishining ayrim hususiyatlari	134
Asadbek San’atbekov	Davolash-sog‘lomlashtirish xizmatlari rivojlanishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	139
Zafarbek Karimov	Milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligini axborotlashtirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari	141
Ismatov Sharofiddin Asatulloyevich	Ekologik innovatsiyalarni joriy etish muammolari va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida yechimlar	145
Ismatov Sharofiddin Asatulloyevich	Ekologik innovatsiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari	148
Maxmudov Sherzod Baxtiyorovich	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda joriy aktivlarni shakllantirish jarayonlari va ularning moliyaviy tahlilga ta’sirini o‘rganish	152
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	Mintaqada kambag‘allikni qisqartirishning dolzarb muammolari va investitsion siyosat samaradorligini oshirish yo‘llari	155
Qazaqov Abdulla	Mintaqaviy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda innovatsion investitsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari.	158
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	Mintaqada kambag‘allikni qisqartirish muammolari va investitsion-iqtisodiy mexanizmlar samaradorligini oshirish yo‘llari	162
Erdanayev Bunyodjon	Yashil iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlari	165

Abdumalikovich	(Surxondaryo viloyati misolida)	
Tadjiyev Bexzod Umidjanovich	Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkor va tadbirkorlik qobiliyatiga yangicha yondashuv	171
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	Mintaqada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish muammolari va yechimlari	176
B. U.Bozorov A. G'.Xazratqulov	Hududlarda kambag'allikni kamaytirish muammolari va yechimlari.	180
A.I.Xayrullayev. N.X.Do'smuxamedova	Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va axborot xavfsizligini taminlash usullari	183
Ergasheva D.A.	Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik tahlili	185
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish masalalari	190
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni aniqlash yo'llari	195
Fozilxo'jayev Oromxon	Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar	200
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	Mintaqada kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarini tartibga solish tizimi	207
Turayev Baxtiyor Ergashevich	Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalarining nazariy asoslari va o'zaro bog'liqligi	210
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich **Egamkulov Davlatbek Bahodir o'g'li**	Milliy iqtisodiyot rivojlanishida innovatsion xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish	216
Raxmatullayeva Yasmina	Raqamli iqtisodiyot sharoitida uy xo'jaliklari moliyasining xulq-atvor modelida ta'sir etuvchi omillari	220
Yunusov Xurshid Azamatovich	Tadbir va ko'ngilochar xizmatlarni rivojlantirishning marketing strategiyasi	223
Xaydarova Shoxista Davranovna	Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari	227
Muradova Ra'no Anvarovna	Surxondaryo viloyatida banklar faoliyatini raqamlashtirishning ahamiyati	233
Rafiyeva Madina Husinovna	Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish muammolari	238
Rashidov Zuhriddin Sanjar o'g'li	Mehnat resurslari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari	243
Sh. B. Bozorov Do'smuxamedova N.X	Statistik tahlil yordamida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish	246
Mamasharifov Jahongir Baxodirovich	O'zbekistonda mintaqaviy rivojlanishni ta'minlashning iqtisodiy asoslari	254
Xakimov Zafar Ibragimovich Shodimaxmatov Umidjon	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosida marketingning o'rni	258
Ulug'murodova Nodira Berdimurodovna Qurbonaliyeva Dilnura Mahmadiyor qizi	Aholini ish bilan bandligini ta'minlash muammolari va yechimlari	260
Bozorov Dadaxon Berdimurodovich	Mıllıy ıqtısodıyotda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining iqtisodiy ahamiyati va xususiyatlari	264

Boymurodov Janon Komiljonovich	Raqamli transformatsiya sharoitida milliy iqtisodiyot rivojlanish muammolari va istiqbollari	268
Xolmuratov Sanjarbek Safar o`g`li	Mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy etishga ehtiyoj va tizim yaratish	272
Yarmatov Sharofiddin Choriyevich	Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tishning strategik yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi tahlili	279
Yarmatov Sharofiddin Choriyevich	Yashil texnologiyalarning mintaqa iqtisodiyotida tutgan o'rni	286
Yusupov Firdavs	Agroiqtisodiy kompleksning infratuzilma ta’minotini takomillashtirish – uning innovatsion rivojlanishining asosiy sharti	290
Axmedov Mansur Allamuratovich	Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati	298
Файзуллаев Нурулла Бахромович	Современные тенденции развития предпринимательства в рыбоводстве Узбекистана	305
Файзуллаев Нурулла Бахромович	Креативная экономика как фактор развития человеческого капитала в Республике Узбекистан	308
Pardayev Lochinbek Farxod o‘g‘li	Surxondaryo viloyati tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili	312
Sh.Ismoilov	Surxondaryo viloyati eksport saloxiyatini yuksaltirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	314
Raximov J.R	Mintaqani boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish	319
Toshmurodov Abdurasul i.f.d., dotsent A.A.Shodiyev	Soliq tushumlarining davlat budjetida tutgan o‘rni	324
Жонузоков Мирзабек Кулмаматович	Формирование системы оценки инвестиционных рисков в секторе высшего образования	328
Sh. Q.Yuldashev M. V.Murodilloyeva	Ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli	332
N. O. Omonova M.B.Xushboqova	Talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishda affiliativ motivatsiyaning o’rni va zarurati	336
Xakimov Z.I J.Mamatmusayeva	Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimi bilan integratsiyalashuvi	340
Yoroqova Ulg‘o‘zi Sangilovna Jumayev Ilhom Nusratovich	Dasturlash tilini o‘qitishda elektron qo‘llanma va darsliklardan foydalanish metodikasi	343
Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna Sobirova Gulg’uncha Hojinazar qizi	O’zbekistonda oliy ta’lim tizimining baynalminallashuvi imkoniyatlari	347
Payziyev Hamid Orziqulovich	Soliq qarzdorligini hisoblash va undirishni takomillashtirish orqali iqtisodiy subyektlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash	351
Samadova Muazzam Qobilovna Oltiboyeva Feruza	Hozirgi vaqtda o'zbekiston-finlandiya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili	355
Pardaeva Marifat Muzaffarovna	Sanoat ishlab chiqarishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uzoq muddatli bog‘liqlik tahlili	359

“MILLIY IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA HISOBI, MOLIYAVIY BARQARORLIK VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(2-QISM)

Muharrir: Eshkarayev S. Ch.

Texnik muharrir: Eshqorayev S. S.

Korrektor va dizayner: Ro‘zimurodov B. I.

Tasdiqnoma № 255979, 13.04.2024

Bosishga 18.04.2026 da ruxsat berilgan. Format 60x84/16.

Garnitura Times New Roman. Adadi 60 dona. Buyurtma № 780

“TERMIZ PUBLISHING CENTER” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.

Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Uvaysiy ko‘chasi 8A-uy, Toshkent sh.,

"TRASTBANK" XA BANKINING BOSH OFISI, MFO: 00491, INN: 311209934 H/R: 20208000307031406001

Telefon: +998-88-808-21-07

Termiz –“Termiz publishing center”-2026